

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA RAHBARNING IJTIMOY-PEDAGOGIK O'RNI VA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARI

Aripjanova Dinora Shuxratovna

MTTDMQTMO instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining ijtimoiy-pedagogik o'rni, uning boshqaruv kompetensiyalari va samarali rahbarlik uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, rahbar, boshqaruv kompetensiyalari, ijtimoiy-pedagogik o'rin, liderlik, boshqaruv madaniyati.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется социально-педагогическая роль руководителя дошкольной образовательной организации, его управленческие компетенции и профессиональные качества, необходимые для эффективного руководства.

Ключевые слова: дошкольное образование, руководитель, управленческие компетенции, социально-педагогическая роль, лидерство, культура управления.

Abstract. This article theoretically analyzes the social and pedagogical role of a preschool education organization leader, their managerial competencies, and the professional qualities necessary for effective leadership.

Keywords: preschool education, leader, managerial competencies, socio-pedagogical role, leadership, management culture.

Maktabgacha ta'lim tizimi ta'limning ilk bo'g'ini sifatida bolalarning jismoniy, psixologik va intellektual rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tizimda rahbarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim siyosati rahbarlardan nafaqat tashkiliy-ma'muriy ishlarni bajarishni, balki ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishni ham talab qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, pedagoglar salohiyatini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Bunday sharoitda rahbarning kompetensiyalar tizimini qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy-pedagogik yetakchilikning mazmunini ilmiy asoslash muhim vazifaga aylanmoqda.

Shunday ekan, ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining ijtimoiy-pedagogik funksiyalari, boshqaruv kompetensiyalari hamda ularning ta'lim dasturlari sifati va tashkilot rivojiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda bir qator ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, maktabgacha ta'lim, pedagogik boshqaruv, liderlik nazariyalari hamda rahbar kompetensiyalari bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar adabiyotlar tahlili metodi asosida o'rganildi. Bu orqali mavzuga oid ilmiy qarashlar, konseptlar va terminlar tizimli ravishda umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv qo'llanilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyati boshqaruv, pedagogik, kommunikativ va innovatsion jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab, o'zaro bog'langan tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv rahbar kompetensiyalarini yaxlit holda tushuntirishga imkon berdi. Shuningdek, turli boshqaruv modellari transformatsion liderlik, situativ boshqaruv, kompetensiyaga asoslangan boshqaruv o'zaro solishtirilib, taqqoslash va konseptual tahlil

metodi qo'llanildi. Bu metod rahbarlik kompetensiyalarining zamonaviy talablarga mosligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida mavjud ilmiy qarashlar, nazariy g'oyalar va tahlillar asosida maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining ijtimoiy-pedagogik o'rni hamda boshqaruv kompetensiyalarining umumlashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Bu jarayonda pedagogik-nazariy modellashtirish metodi qo'llanib, konseptual modelning tarkibiy qismlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotga doir adabiyotlar tahlili maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyati nafaqat ma'muriy boshqaruvni, balki keng qamrovli ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni ham o'z ichiga olishini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, rahbarning ijtimoiy-pedagogik o'rni bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, rahbar pedagogik jarayonning umumiy strategiyasini belgilovchi yetakchi sifatida ta'lim dasturlarining mazmuni, metodik ta'minoti va tarbiyaviy ishlarning sifati uchun mas'uldir. Rahbarning bu funksiyasi pedagogik jamoaning professional rivojlanishi va bolalar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishni taqozo etadi [1].

Ikkinchidan, rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotini ijtimoiy institut sifatida boshqarib, ot-onalar, mahalla, hamkor tashkilotlar va jamoatchilik bilan konstruktiv o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yadi. Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, faol ijtimoiy hamkorlik muassasaning ochiqligi, ishonchi va ta'lim sifati ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, rahbarning kommunikativ, innovatsion va motivatsion kompetensiyalariga oid ilmiy manbalar tahlili rahbarning jamoa ichida ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Bu omil pedagoglarning kasbiy faolligi, ijodkorligi va o'z ustida ishlash motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2].

Tahlillar asosida rahbarning boshqaruv kompetensiyalari quyidagi yo'nalishlarda to'plangan ekani aniqlandi: tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalari, pedagogik-metodik salohiyat, kommunikativ kompetensiyalar, ijtimoiy-emotsional yetuklik, innovatsion boshqaruvga tayyorlik va normativ-huquqiy savodxonlik. Ushbu kompetensiyalar majmuining shakllanganligi rahbarning strategik rejalashtirish, muammolarni hal qilish, jamoani boshqarish va ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi samaradorligini belgilaydi [3].

Tadqiqot natijalarning yana bir muhim jihati rahbarning pedagogik yetakchilik sifati va boshqaruv madaniyati maktabgacha ta'lim sifatiga sezilarli darajada ta'sir etishini ko'rsatishidir. Xususan, rahbarning innovatsiyalarni joriy etish qobiliyati ta'lim dasturlarining yangilanishi va bolalar uchun rivojlantiruvchi muhitning boyishi bilan bevosita bog'liq [4]. Shuningdek, rahbarning ijtimoiy-pedagogik yondashuvi orqali pedagoglar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va ijodiy faoliyatga rag'bat kuchayadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasasida rahbarning ijtimoiy-pedagogik funksiyalari va boshqaruv kompetensiyalari tashkilotning rivojlanish istiqbollari va ta'lim sifati uchun hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

Avvalo, tadqiqotda aniqlanganidek, rahbarning ijtimoiy-pedagogik yetakchilik roli zamonaviy ta'lim muhitining murakkab talablari bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim jarayonida rahbar nafaqat pedagogik jamoani boshqaradi, balki bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy sharoitlarni ham muvofiqlashtirishi lozim. Bu esa rahbardan yuqori darajadagi kommunikativ, emotsional-intellektual va ijtimoiy hamkorlik kompetensiyalarini talab qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari rahbarning innovatsion kompetensiyalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat o'zgarishlarini amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin tutishini tasdiqladi. Hozirgi raqamli ta'lim muhiti, STEAM yondashuvlarining kirib kelishi va interaktiv metodlar keng qo'llanilishi rahbarning texnologik savodxonligini, yangiliklarga nisbatan ochiqligini va

o'zgarishlarni boshqarish qobiliyatini kuchaytirishni talab qiladi [6]. Shu nuqtayi nazardan, rahbarning innovatsion liderlik fazilatlarini pedagogik jarayonni yangilashning asosiy omillaridan biri sifatida muhokama qilinadi.

Shuningdek, rahbarning boshqaruv madaniyati pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etishi muhim ilmiy xulosa sifatida e'tirof etiladi [5]. Konstruktiv muloqot, motivatsiyada shaffoflik, qulay psixologik muhit yaratish va jamoaviy qaror qabul qilish kabi omillar pedagoglarning o'z kasbiga sodiqligini kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida bolalar rivojlanishiga qaratilgan ta'lim jarayonining sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, rahbarning ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotining ochiqligi va jamoatchilik ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Ota-onalar va mahalla bilan samarali hamkorlik o'quv-tarbiyaviy jarayonning uzviyligini ta'minlaydi, ta'lim muassasasining ijtimoiy kapitalini mustahkamlaydi va bolalar manfaatlarini yanada faol himoya qilish imkonini yaratadi.

Rahbar kompetensiyalarining har bir turi – boshqaruv, pedagogik, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional va innovatsion kompetensiyalar – o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi [5]. Bu kompetensiyalarning birortasi yetishmasa, boshqaruv jarayonida muvozanat buzilishi, pedagogik jarayon sifati pasayishi va jamoada motivatsiya pasayishi ehtimoli ortadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatining muvaffaqiyati rahbarning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy malakasi va boshqaruv madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning strategik omili hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining ijtimoiy-pedagogik o'rni ta'lim sifati, bolalar rivojlanishi va pedagoglar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rahbarning boshqaruv kompetensiyalari esa tashkilot samaradorligining asosiy determinanti hisoblanadi. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish maktabgacha ta'lim tizimining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kobiljonovna A. D. va boshqalar. Ta'lim muassasalarini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari // Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 56-60.
2. N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006. – 240 b.
3. Abdullayeva N.Sh. The role of modeling in the development of coherent speech of senior preschoolers// International journal of multidisciplinary research and analysis ISSN(print): 2643-9840, ISSN(online): 2643-9875 Volume 03 Issue 12 December 2020 DOI: 10.47191/ijmra/v3-i12-09, Impact Factor: 5.522 Page No.- 321-323
4. Abdullayeva N.Sh. Pedagogical possibilities of design activity in the process of increasing the qualification of preschool workers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 1 2020 Page 90-95 bet
5. Valiyeva F.R. Ensuring continuity in the training of future professionals in the education system.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Volume 7 Number 6, 2019. ISSN 2056-5852
6. Valiyeva. F.R., Kurbonov Sh. Continuity in the education system // Wschodnioeuropejskie // East european science journal 12(52)2019 45-52. 2020